Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mamajonov U.U. XIX asr ingliz romanida realizm tendensiyalari va ularning jahon romanchiligiga ta’siri. Filol. fan. dokt. (DSc) diss., Toshkent, 2020.

(2). G‘aniyeva S.S. Ingliz va o‘zbek romanchiligida ayol qiyofasi talqini (J.Ostin va O‘.Hoshimov asarlari misolida). Filol. fan. bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoref., Toshkent, 2021.

(3). Qosimova G.A. Ayol psixologizmi va jins-rol masalalari. J.Ostin va Sh.Bronte romanlari misolida. Toshkent, 2023.

(4). Qudratova Sh.B. Ingliz va o‘zbek romanlarida ijtimoiy muhit va maishiy detallar tahlili. Toshkent, 2021.

(5). To‘xtamisheva N.I. Zamonaviy o‘zbek qissachiligida ayollar obrazi tizimi va badiiy psixologizm. Samarqand, 2021.

(6). Masharipova G.K. Jahon adabiyotida ayollar ijodi va badiiy mahorat muammolari. Toshkent, 2022.

Qodirova Ma’rifat Abdullayevna (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti “Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi” kafedrasi assistenti (PhD); qodirovamarifat@gmail.com);

Mardiyeva Dilnoza (4-bosqich talabasi; mardiyevadilnoza@gmail.com)

AHMAD A’ZAM HIKOYALARINING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ahmad A’zamning ijodi yo‘li bilan tanishish imkoniga ega bo‘lasiz. Ahmad A’zam hikoyalarining jozibasi va qirg‘iz xalqining yozuvchisi Chingiz Aytmatovning ayrim hikoyalarida Ahmad A’zam ijodida uchraydigan shakl va uslublarni yoritilishini kuzatishimiz mumkin. Shuni ham ta’kidlashimiz kerakki, Ahmad A’zam ijodini mukammal o‘rgangan va o‘rganyotgan olimlarning ilmiy ishlari va fikrlari bilan tanishamiz.*

Kalit so‘zlar*: hikoyachilik, uslub, oiladagi munosabat, ichki iztirob, inson qadri.*

Кадирова Маърифат Абдуллаевна (Самаркандский государственный университет, Институт языков и культур народов Центральной Азии, ассистент кафедры литературы и теории литературы (PhD); kadrovamarifat@gmail.com),

Мардиева Дилноза Шароф (студентка 4 курса; mardievadilnoza@gmail.com)

УНИКАЛЬНОСТЬ ИСТОРИЙ АХМАДА АЗАМА

Аннотация. *В статье у вас будет возможность познакомиться с творчеством Ахмада Азама. Очарование рассказов Ахмада Азама и освещенность форм и стилей, встречающихся в творчестве Ахмада Азама, мы можем наблюдать в некоторых рассказах Чингиза Айтматова, писателя кыргызского народа. Следует также отметить, что мы познакомимся с научными трудами и мыслями ученых, изучавших и изучающих труды Ахмада Азама.*

Ключевые слова*: повествование, стиль, семейные отношения, внутренние страдания, человеческие ценности.*

Kadirova Ma’rifat Abdullayevna (Assistant teacher (PhD), Department of "Literature of the Independence Period and Literary Theory", Institute of Languages and Cultures of the Peoples of Central Asia, Samarkand State University named after Sharof Rashidov; kadirovamarifat@gmail.com),

Mardiyeva Dilnoza Sharof (4th grade student; mardiyevadilnoza@gmail.com)

THE UNIQUENESS OF AHMAD A’ZAM’S STORIES

Annotation. *In this article, you will have the opportunity to get acquainted with the work of Ahmad Azam. We can observe the charm of Ahmad Azam's stories and the illumination of the forms and styles found in Ahmad Azam’s work in some of the stories of Chingiz Aitmatov, a writer of the Kyrgyz people. We should also note that we will get acquainted with the scientific works and thoughts of scientists who have studied and are studying the works of Ahmad Azam.*

Key words: *storytelling, style, family relationship, inner suffering, human value.*

Kirish. Ahmad A’zam ijodidagi “Oyning gardishi” va Chingiz Aytmatovning qalamiga mansub “Qizil olma” hikoyalari orqali inson ruhiyatidagi barkamollik va insonlar hayotidagi nozik his tuyg‘ular ulug‘lanadi.

Yozuvchi uchun eng murakkab masala; biror maqola yoki voqeani bayon qilish uchun yoziladigan asardir. Adabiyotimizda har qanday asar 3 turdan birida yoziladi. Bular: 1) lirik; 2) epik; 3) dramtik.

Ayni paytdagi muhokama epik turga mansub bo‘lib, hikoyachilik yo‘nalishi hisoblanadi. “Hikoya – badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asardir”.[1] Ahmad A’zam hayot yo‘liga e’tibor beradigan bo‘lsak, uning har bir yozgan manbasida o‘zining turmush tarzi, bo‘lib o‘tgan voqealar, hayot tajribalariga asoslangan holda yozilgan. Darhaqiqat, Ahmad A’zam Samar-

[1] Normatov U. Janr imkoniyatlari. Toshkent, 1970.

qand viloyatida tavallud topgan, yoshlig-u beboshligi mana shu maskanda o‘tgan. Shuning uchun yozgan asarlarida viloyat atrofidagi tuman va qishloqlar tabiat manzaralari va muhitni asosiy detal sifatida oladi.

Adabiyotlar tahlili. Bizga ma’lumki, Qirg‘iziston yozuvchisi bo‘lgan Chingiz Aytmatovning hikoyalari bilan Ahmad A’zam hikoyalarini uslub jihatdan o‘xshashliklarini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Sababi Chingiz Aytmatov ham o‘zining yozmalarida tabiat, hayvonot olamini asosiy detal qilib ko‘rsatgan. Bunda Ahmad A’zamning “Oyning gardishi” hikoyasi tahlil qilinadi. Hikoyaning ayrim joylariga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. “Oyning gardishi” bu nomni Ahmad A’zam majoziy ma’noda qo‘llaniladi. Sababi, ayni paytda, muhit shunga o‘xshash voqealar bilan namoyon bo‘ladi. Ya’ni, inson ma’naviyatiga to‘siq bo‘ladigan ko‘pgina holatlar, ijodning qadri pastligi, tanqidchilarning noo‘rin talablari ijodkorlarni bir chegara ostida ushlab turishga majbur etgan. Bu fikrlarimizning isboti sifatida Mirzarahimova Zulayhoning “Ahmad A’zam asarlari lingvopoetikasi” maqolasidagi quydagi fikrni ko‘rsatish mumkin: “Ya’ni, qo‘rg‘onlangan oy – biqiq muhit ramzi. Oyning gardishi –jamiyatdagi chegaralangan an'anaviy milliy qadriyatlar ramzi, gardish – cheklanganlik, chegaralanganlik ramzi, oyning qo‘tonlashi – bir xil hayot, ijtimoiy tuzumga, an’anaviy milliy qadriyatlarga o‘ralishib qolgan o‘zbek xalqining hayotiga ramziy ishoralardir. Oq qo‘yga minib olib, yo‘l topa olmayotgan bola – o‘zbek xalqining an'anaviy milliy qadriyatlari bilan to‘qnashib, o‘zi istaganidek, katta yo‘lga chiqa olmayotgan odam ramzi”.[1] “Nazarimizda, hikoyada markaziy o‘ringa qo‘yilgan Bola va Oy obrazlari mana shu yuqoridagi parchada o‘zining kulminatsion nuqtasiga chiqadi. Bola tushida oq qo‘yni minib olib, qo‘radan chiqib ketish uchun urinadi. Lekin eshik topolmaydi, oyning oydin yorug‘i, uning ko‘zlarini qamashtiradi. Bizningcha, hikoyada oy va qo‘tonlagan oy, bola va oq qo‘y obrazlari timsolli ramzlarga aylanadi”.[2]

Tadqiqotning metadologiyasi. Ahmad A’zam ijodiga qiziqqan har qanday havaskor uning yozish usuliga ahamiyat qaratishi zarur. Nega? Chunki Ahmad A’zamning roman, hikoya, novellalariga e’tibor beradigan bo‘lsak: yopiqlik, sokinlik, tabiat, hayvonot dunyosini asosiy detal sifatida shakllanadi. Shunisi ham ahamiyatliki, Ahmad A’zam asarlarida asosiy badiiy obraz o‘zi bo‘lib xizmat qiladi. Haqiqatdan, o‘zining turmush tarzi, sharoiti o‘zini tanqid ostiga olishi, ilm yo‘lida qilgan o‘zi bo‘lsa-da, mehnatlarini, o‘zining yoshligini yozma manbalarida namoyon qiladi. Bu fikrimiz dalili sifatida Nazar Eshonqulning quydagi fikrini keltirishimiz mumkin: “Bu novellalarda biz o‘zbek nasrida nisbatan yangi qahramon – jamiyatda, hayotda o‘z o‘rnini anglayotgan, anglash orqali uyg‘onayotgan fikr, uyg‘onayotgan o‘zlikni, uyg‘onayotgan “men”ni anglatuvchi qahramon paydo bo‘ldi. Bu novellalarda “men”dan boshqa qahramon yo‘q: ijobiy ham, salbiy ham, jabrlovchi ham, jabrlanuvchi ham, ezuvchi ham, eziluvchi ham, hukmga mustahiq ham, hukm etuvchi ham ana shu “men”ning o‘zi, ya’ni o‘zi bilan o‘zi gaplashayotgan odam”.[3]

Tahlil va natijalar. Shuni ham ta’kidlashimiz lozimki, qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning ham ijodini o‘rganishda, asarlarini muhokama qilishda Ahmad A’zamning ham asarlarida qaysidir o‘xshash jihatlar borligini, uslub jihatdan o‘xshashligini ko‘ramiz. “Oyning gardishi”dagi o‘qimishli, kitobsevar bir bolaning yorqin xotiralari, tabiatga muhabbati, ichki psixologiyaning sokinligi, sodda yigitni ko‘rishimiz mumkin. Chingiz Aytmatovning “Qizil olma” hikoyasida ham Isabekovning o‘y-kechinmalari, o‘zi bilan o‘zi suhbatlashishi, tabiatni xush ko‘ruvchi shaxs sifatida gavdalanadi. Albatta, bu fikrlarimiz bilan ikkala ijodkorning uslubi bir xil, deya olmaymiz. Ammo Ahmad A’zamda ham, Chingiz Aytmatov ham bosh obraz doim yolg‘izlikda, qiyinchilikda, ruhiyatning pastligi bilan gavdalanadi. Yana bir tomoni har doim obraz yorqinlikka talpinib, ezgulikni izlab yashaydi. Bilamizki, har bir narsa, voqeaning inson hayotida qandaydir o‘rni bo‘ladi. Ijodkorlar uchun bu narsa bir turtki bo‘lib, o‘zlarining xarakterini ochib beradi. Masalan, Chingiz Aytmatovning “Asirni qaritgan kuni” asarida ham Kazangapning sodda, ichi to‘la dard bo‘lsa-da, har doim yumshoq muomalali obraz qilib ko‘rsatgan. Xuddi shunday, Ahmad A’zamning ham “Soyasini yo‘qotgan odam”, “Gul ko‘tarib ketayotgan erkak”, “Oyning gardishi” asarlarda ham asosiy obraz yozuvchining o‘zi sanaladi. Bu fikrning isboti sifati quydagi jumlani ko‘rsatish muhim: “Hikoyada garchand olim bo‘lishni orzu qilib shaharda qolib ketgan katta o‘g‘il bilan kitobsevar kenja o‘g‘il obrazlari ikki odam sifatida yoritilgan bo‘lsa-da, bu ikki obraz umumiy holda birlashib, Ahmad A’zamning o‘zi ekani haqidagi fikr-xayolimizda aylanaveradi”.[4]

Ahmad A’zam ijodi bilan yaqindan tanish bo‘lgan va ilmiy izlanishlar olib borgan mutaxassislardan Qozoqboy Yo‘ldosh va Muhayyo Yo‘ldoshevalar Ahmad A‘zam ijodi borasida so‘z yuritar ekanlar, ana shunday fikrga kelishgan. Ular o‘z fikrlarini davom ettira borib, shunday yozishgandi: "Bunday yaratiqlar adabiyotni yangilabgina qolmay, kitobxonlar didining o‘sishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi bilan ham ahami-

---

[1] Mirzarahimova Z. Ahmad A’zam asarlari lingvopoetikasi. Maqola, 2022, 862-bet.
[2] Qurbonov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T., 2010.
[3] Mirzarahimova Z. Ahmad A’zam asarlari lingvopoetikasi. Maqola, 2022, 859-bet.
[4] A.A’zam. Hali hayot bor... Toshkent, “O‘zbekiston”, 2011.

yatlidir. Ahmad A'zam asarlarining ichki mexanizmi qandayligini, ularning badiiyatini ta'minlagan omillar nimalardan iboratligini aniqlashga urinish o'qirmanga hayotning ko'zga tashlanavermaydigan mayda hodisalari zamiridagi ulkan ma'nolarni anglash imkonini beradi. "Ahmad A'zam ijodidagi eng muvofaqqiyatli va ijodiga shon-shuhrat olib kelgan asari "Ro'yo yoxud gulistonga safar" asari bo'lib, asar roman janirida yozilgan. Asar boshida "Yettinchi javob: bu qissamizning avvali ham tush, o'rtasi ham tush, oxiri ham tushdur" ("Yusuf alayhisalom qissasi") ko'rinishida jumla keltiriladi. Roman boshlanma, kirish , asosy qismdan tashkil topgan. Asarning umumiy hajmi 285 betni tashkil qiladi. Boshlanma Ahmad A'zamining teran fikr va mulohazalari, asar haqidagi jumlalar bilan, shu bilan birga, asarning yozilish sabablari keng yoritilgan. Adabiyotshunoslar tomonidan ushbu asarga quydagicha ta'rif beriladi. "Romanning o'ziga xosligi shundaki, uni to'lig'icha ijtimoiy badiiyat namunasi, deyish ham, ijtimoiy muammolar inson ruhiyatini ochish vositasigina bo'lgan asar deb sanash ham mumkin. Adibning estetik manzara yaratishda mayda detallarni batafsil tasvirlash usuli o'qirmanni hushyorlikka, biror tafsilotga befarq bo'lmaslikka, asarni sinchiklab o'qishga undab, uning badiiy saviyasini o'stiradi. Romanda qahramon tushib qolgan ilojsiz vaziyat kitobxonning rahmini keltirish uchun emas, tirik odamni yaxshi va yomon, kuchli va ojiz, ezgu va yoqimsiz qirralari bilan haqqoniy ko'rsatish maqsadida tasvirlangan". Ahmad A'zam adabiyotimiz ravnaqi uchun harakat qiladi, adabiyotimizni yevropa mamlakatlarida ham ilg'or va izlanuvchan yoshlar tomonidan o'rganilishini chin dildan xohlaydi va quydagicha fikr yuritadi. Jumladan, Ahmad A'zam o'zbek adabiyotining katta jahon adabiyotidan munosib o'rin egallashini istaydi: "O'zbek adabiyotini chetda bilishlari uchun, eng avvalo, o'zbek millati, davlatining nufuzi chetda ham balandroq bo'lishi kerak. Biz sho'ro paytida, falon yozuv-chimizni dunyo taniydi, u dunyoning falon tillariga tarjima qilingan deb, dunyoni sotsialistik lagerdan kengroq tasavvur qilolmay, faxrlanib yurar edik. Dunyoning bizga qiziqishi bo'lsa, o'zi bildirar edi. Bizda o'zimizni targ'ib etish bo'yicha rivoj yo'q, ko'proq o'zimizni o'zimizga maqtaymiz, xususan, adabiyotni chetga tanitish bo'yicha... hech qanaqa ish qilinmaydi. Keyin bu yerda tilni bilish masalasi ham bor. Qodiriy turkiy boshqa tillarda, tojik tilida Qodiriy bo'lishi mumkin, lekin Ovrupo tillarida uni butun borlig'i bilan ko'rsatishning sira iloji yo'q. Uni chetda mashhur qilish uchun Yaponiya va yaponlar singari e'tiborda turish kerak – Haqiqat ko'ziga tik qarab kelgan, qarayotgan adib va adabiyotshunos Ahmad A'zam fikricha, vaqt ko'p narsaning hakam – "Hozirgilaridan qanday asarlar yashab qoladi, degan savolning javobi kelajak kitobxoniga oydin bo'ladi. Har holda, achchiq haqiqat, shakkoklik emas bu, ko'p asarlarimiz tarix chig'irig'idan o'tmaydi. Kimdir yo kimlarningdir xohish irodasi bilan emas, zamon o'zgarishi, mafkura – fikrlashimiz yangilanishi bilan qancha asarlarimiz o'tmish mulkiga aylandi, bu jarayon hali davom etyapti, adabiyot ehtimol shafqatsizlarcha o'zini tozalayapti, bizning yozganlarimizdan qanchasi bir kuni o'tmish mulki bo'lib qoladi, bu boshdan do'ppini olib, xotirjam o'ylab ko'radigan masala", deb fikr bildirgan.

Xulosa. Ahmad A'zam ijodida hikoya janri alohida ahamiyatlidir. Shunday ekan, yozuvchi ijodida obrazlarni tanlashda o'ziga xosligi, ramziylik, falsafiylik yetakchilik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Normatov U. Janr imkoniyatlari. Toshkent, 1970, 350-bet.
(2). Mirzarahimova Z. Ahmad A'zam asarlari lingvopoetikasi. Maqola, 2022, 862-bet.
(3). Qurbonov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent, 2010, 400-bet.
(4). Mirzarahimova Z. Ahmad A'zam asarlari lingvopoetikasi. Maqola, 2022, 859-bet.
(5). Аъзам А. Ҳали ҳаёт бор. Тошкент, "Ўзбекистон", 2011, 250-бет.

Internet saytlari

wikipedia.www.uz
Arxiv.uz

Nasirova Zuhra (Chirchiq davlat Pedagogika universiteti maktabgacha talim fakulteti katta o'qituvchisi)

BADIIY ASARLARDA DARAXT O'SISH TINCHLIK RAMZI SIFATIDA

Annotatsiya. *Badiiy asarlarda daraxt obrazi ko'plab ma'nolarda talqin qilinishi o'rghanilgan. Daraxtlar ko'p hollarda hayot, o'sish, kuch va sabr-toqat ramzi sifatida ko'riladi. Ular tabiatning go'zalligini, tinchlik va sokinlikni ifodalaydi. Jahon adabiyoti kontekstida ko'plab yozuvchilar o'z asarlarida daraxt qiyofasiga murojaat qilganlar. Qadim zamonlardan beri daraxt insoniyatning ma'naviy madaniyatining eng sevimli, sirli va ko'p qirrali ramzlaridan biri bo'lib kelgan. Insonlar xalq og'zaki ijodida daraxtning ruhi borligi va faqat o'ziga xos muqaddas mistik kuchga ega ekanligiga ishonganlar. Shu sababli mazkur maqolada badiiy asarlarda "daraxt" obrazining asosiy mohiyati va unga oid turli yondashuvlar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviyat, madaniyat, mistika, tahlil, sintez, tinchlik, o'sish, mangu, ibtido, barhayot.*